



## BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH - KASBIY KOMPETENTLIK ASOSI SIFATIDA

*Xudayshukurova Madina Ikrom qizi*

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda kreativ salohiyatning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kreativlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari, talabalarda ijodiy fikrlashni to‘suvcchi omillar va ularni bartaraf etish usullari yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, kasbiy kompetentlik, informatsion kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, innovatsion kompetentlik

**Аннотация:** В данной статье анализируются роль и значение креативного потенциала в формировании профессиональной компетентности будущих специалистов. Освещены психолого педагогические механизмы развития креативности, факторы, препятствующие творческому мышлению студентов, а также методы их устранения.

**Ключевые слова:** креативность, профессиональная компетентность, информационная компетентность, социальная компетентность, инновационная компетентность.

Zamonaviy mehnat bozori mutaxassisdan nafaqat standart bilimlarni, balki kutilmagan vaziyatlarda tezkor va original qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifatining mezoni - bu pedagogning kasbiy kompetentsiyasi bo'lib, u jamiyat va davlat tomonidan XXI asr mutaxassisiga qo'yiladigan barcha talablarni to'liq aks ettiradi. Shu munosabat bilan layoqatli



pedagoglarni tayyorlash zamonaviy kasbiy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tashkilotlari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Ta'limning raqamli shakllarini va innovatsion metodlarni qo'llash, o'qituvchining yangi rolini shakllantirishi va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zaruriy shartdir [1]

Respublikamimizda ta'limning moddiy texnik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida axborot-ta'lim muhitini yaratish, axborot resurslarini ishlab chiqish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash metodikalarini takomillashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilarning jahon ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu o'rinda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. "Kompetentlik" (ingl. "competence" -"qobiliyat") faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi. Kompetentlik pedagogik kategoriya sifatida ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi.[2]

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning



egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, “kompetensiya” mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

1. Ijtimoiy kompetentlik
2. Maxsus kompetentlik
3. Ektremal kompetentlik

Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bkmni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

c) informatsion kompetentlik - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;



d) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;  
e) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;  
f) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

g) shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

h) texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bkmni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. [3 ]Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko‘rsatkichlariga e‘tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin. [4]

Kasbiy faoliyati samarador bo‘lishi uchun egallanishi muhim bo‘lgan kompetensiyalar sohasining turlitumanligini anglash aynan ushbu kompetensiyalar doirasini aniqlash, shuningdek, ular orasidan o‘z xarakteriga ko‘ra eng universal bo‘lgan tayanch, bazaviy kompetensiyalarni ajratib olish muammosini keltirib chiqardi. Kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik - faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi[5].



Kompetentlik - individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan, atrofidagi ob'ektlar va sub'ektlar bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha ma'lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

Pedagogik kompetensiyaning dolzarbligi va uning o'sib borayotgan roli o'qituvchilarning raqamli ta'limda muvaffaqiyatli ishlashiga, o'quvchilarning ta'lim olish sifatiga va butun ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik kompetensiyaning tarkibi va uning tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish va ularga mos ravishda rivojlantirish zarur. O'zbekistonning ta'lim tizimi uchun pedagogik kompetensiyani rivojlantirish, ayniqsa raqamli ta'lim sharoitida, ta'lim sifatining o'sishiga va butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shunday qilib, pedagogik kompetensiyaning dolzarbligi va uning o'sib borayotgan roli o'qituvchilarning raqamli ta'limda muvaffaqiyatli ishlashiga, o'quvchilarning ta'lim olish sifatiga va butun ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik kompetensiyaning tarkibi va uning tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish va ularga mos ravishda rivojlantirish zarur. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Bu talablar nafaqat an'anaviy bilim va metodik ko'nikmalarni egallash, balki o'zgaruvchan axborot muhitida tezkor qaror qabul qilish, texnologik yangiliklarni egallash, shuningdek, interaktiv va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratishni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatni axborotlashgan va rivojlangan deb hisoblashimiz uchun yangi avlodni tarbiyalaydigan muhim shaxslar sifatida o'rin tutadilar [6]. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika, mehnat qurollari va yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi.



Pedagogik kompetensiya - bu o'qituvchining bolalarga individual yondashuvi, ularning ichki dunyosini tushunib, tarbiyaviy va didaktik vazifalarni hal qilishga bo'lgan layoqatidir [7]. Oliy ta'limda pedagogik kompetensiyani shakllantirishda pedagogik amaliyot, interaktiv seminarlar, kasbiy rivojlanish kurslari va mentorlik tizimining roli katta. Ayniqsa, pedagogik psixologiya, didaktika, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish o'qituvchining kasbiy barkamolligini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda hayot davomida ta'lim olish tamoyilining ustuvorligi pedagogik kadrlardan doimiy yangilanishni talab etmoqda. Bunda, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tahliliy fikrlashi, reflektiv yondashuvi va o'z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev, S. K. (2016). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. O'zbekiston nashriyoti.
2. Djurayeva, G. (2024). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish .O'quv-uslubiy majmua. Toshkent.
3. Shodmonqulova, M. (2017). Pedagogik mahorat asoslari. TDPU.
4. G'aniev, J., G'anieva, N. (2019). Pedagogik texnologiyalar. TDPU.
5. Tojiboyeva, G. R., & Pulatova, D. T. (2020). Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic Research in Educational Sciences, 1(3), 214.
6. Zimnyaya, I. A. (2013). Pedagogik kompetensiyaning dinamikasi va ta'limdagi yangi talablar. Toshkent.
7. Amonashvili, Sh. A. (2002). Insonparvarlik pedagogikasi haqida mulohazalar. Pedagogik nashriyoti.